

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**REFLECTIONS ON THE STUDY OF LINGUOPOETICS IN UZBEK LINGUISTICS****Fazilat Erkinovna Ibragimova**

Associate Professor

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: text linguopoetics, stylistic aspect, linguostylistic analysis, syntactic unit, morphopoetic method, phonetic method, significatum, expressiveness, metasemiotic aspect, polysemy, syntax.

Received: 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

Abstract: This article discusses issues related to the artistic nature of syntactic units and the problems of linguopoetics in linguistics. Although a number of studies have been conducted on these topics, they have not yet been comprehensively and systematically explored. Most existing research focuses on the linguopoetic analysis of selected works by individual authors. The article emphasizes that the growing number of scientific studies devoted to the investigation of the linguopoetics of literary texts in Uzbek linguistics is driven by the diversity and multiplicity of research objects, as well as their structural and semantic variability.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOPOETIKANING O‘RGANILISHI TO‘G‘RISIDA MUHOZARALAR**Fazilat Erkinovna Ibragimova**

Dotsenti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: matn lingvopoetikasi, stilistik aspekt, lingvostilistik tahlil, sintaktik birlik, morfopoetik usul, fonetik usul, signifikat, ekspressivlik, metasemiotik jihat, polisemantizm, sintaksis.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda sintaktik birliklar badiiyati va lingvopoetikasi masalalari yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq o‘rganilmagani, bunday tadqiqotlar alohida olingan adiblarning bir qancha asarlarining lingvopoetikasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida badiiy asarning lingvopoetikasini tadqiq qilishga doir ilmiy ishlarning ko‘payishi

bunday o'rganish obyektlarning ko'pligi va turli-tumanligiga asoslanishi xususida so'z yuritiladi.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О ИЗУЧЕНИИ ЛИНГВОПОЭТИКИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Фазилат Эркиновна Ибраимова

Доцент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвопоэтика текста, стилистический аспект, лингвостилистический анализ, синтаксическая единица, морфопоэтический приём, фонетический приём, сигнификат, экспрессивность, метасемиотический аспект, полисемантизм, синтаксис.	Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы лингвостилистического анализа художественности синтаксических единиц и проблематика лингвопоэтики в языкознании. Несмотря на то, что по данным вопросам проведён ряд исследований, они до настоящего времени не получили всестороннего и системного изучения. Большинство существующих работ посвящено лингвопоэтическому анализу произведений отдельных авторов. Подчёркивается, что увеличение количества научных исследований, направленных на изучение лингвопоэтики художественного текста в узбекском языкознании, обусловлено многообразием и широтой исследуемых объектов, а также их структурной и семантической вариативностью.
---	---

O'zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida badiiy asar tilini har taraflama chuqur o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ijodkorlarning mahorati lisoniy imkoniyatdan unumli foydalanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon etishi bilan belgilanadi. Zero, "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz". Binobarin, "Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda".

Badiiy asar tilini stilistik jihatdan o'rganish natijasida lingvopoetik izlanishlar yuzaga keldi. Badiiy matn lingvopoetikasi muammolarini batafsil va yaxlit tarzda tadqiq etgan M.Yo'ldoshev haqli ravishda shunday yozadi: "Badiiy asar tilini stilistik aspektda o'rganishga qaraganda lingvopoetik o'rganish bir qadar ilgari qo'yilgan qadam va ancha samarali yo'l ekanligi bugun

oydinlashib bormoqda. Ayni paytda badiiy asar tilining lingvopoetik tahlili lingvostilistik tahlil natijalariga asoslanishi ham tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanadi".

Shu tariqa lingvopoetik xarakterga xos bo'lgan bir qator ishlar e'lon qilindi. Bu o'rinda o'zbek tilshunosligida lingvopoetikaga oid dastlabki ishlar sifatida tilshunos olim N.Mahmudovning Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda kabi atoqli o'zbek adiblarining asarlari lingvopoetikasini o'rganishga bag'ishlagan bir qator maqolalarini tilga olish mumkin.

O'zbek tilshunosligida, umuman, tilshunoslikda sintaktik birliklar badiiyati va lingvopoetikasi masalalari yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hali to'liq o'rganilmagan. Bunday tadqiqotlar alohida olingan adiblarning bir qancha asarlarining lingvopoetikasini o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbek tilshunosligida sintaktik birliklar badiiyati haqida o'z davrida Fitrat, Elbek, Oybek kabi ijodkorlar o'z fikrlarini aytib o'tishgan. Jumladan, Fitratning xalq og'zaki ijodi va uni o'rganish zarurligi haqida quyidagilarni yozadi: "Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarga ko'ra olamiz. Ularning jon ozig'i bo'lib turgan dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo'shiqlar bor. Shularning hammasini buyuk bir diqqat bilan xalq og'zidan chiqqani kabi yozib olish kerak. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Mashrab, Navoiy, H.Boyqaro, Munis kabi shoirlarimiz asarlari bor. Shularning hammasini qilni qirq yorib tekshiraylik, bir-biriga solishtirib, asosli natijalar olaylik. Mana shu yo'ldan shu shaklda qurollanib maydonga chiqqanimizda ko'rilgan ishlar, olingan natijalar – ilmiy bo'lib chiqadir".

O'zbek tilshunosligida badiiy asarning lingvopoetikasini tadqiq qilishga doir ilmiy ishlarning ko'payishi bunday o'rganish obyektlarning ko'pligi va turli-tumanligiga asoslanadi. "Badiiy asar xalq tili o'zining barcha imkoniyatlarini bor bo'yicha namoyon qila oladigan, yozuvchining mahorat darajasiga ko'ra bu imkoniyatlarni to'lasicha ishga solish mumkin bo'lgan o'ziga xos maydondir. Bu imkoniyatlar cheksiz-chegarasiz bo'lib, muayyan asarda uning ro'yobi masalalarini o'rganish, avvalo, yozuvchining badiiy til borasidagi mahoratini, qolaversa, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini namoyish etishga asos bo'ladi". Yuqorida aytib o'tilganday, o'zbek tilshunosligida N.Mahmudovning lingvopoetikaga oid ilmiy maqolalari bu sohada fundamental tadqiqotlar yaratishga asos bo'ladi.

Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari o'zbek tilshunosligida 60-yillarda ham keng o'rganilgan. Bu davrdagi tadqiqotlarda Alisher Navoiy asarlari faol o'rganilgan. Jumladan, Navoiy asarlarida sinonimlar (M.K.Raxmatullayev), Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik va morfologik xususiyatlari (A.Rustamov), Navoiy lirikasida qo'shma otlar ishlatilishi (B.Bafojev). Shu bilan birga boshqa ijodkorlarning asarlari ham tadqiqot obyektlariga aylandi.

70-yillarda ham badiiy asarlarning til xususiyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Alisher Navoiy asarlarini o'rganish davom etishi bilan birga (A.Karimov) boshqa ijodkorlarning

asarlari ham tahlilga tortildi. Jumladan, G'.G'ulom she'riyati poetikasi (B.Choriyev), Maqsud Shayxzoda poetikasining tili (B.Yariyev). B.Yo'ldoshev va Z.Shodievlar Said Ahmad asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini o'rgananganlar.

80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi atroflicha olib borilgan. Jumladan, badiiy va publitsistik matnlar tahliliga doir T.Jumayev, Z.Xolmanova, R.Normurodov, Y.Sayidov, F.Babadjanov, S.Boymirzayeva, M.Tojiboyev, A.Xalikov, A.Xasanov, S.Normamatov, S.Maxsumova, X.Xamrayeva va boshqalarning ishlarida badiiy asar tilini o'rganish bilan bog'liq ilmiy-nazariy muammolar to'g'risida so'z yuritilgan.

Shu bilan birga Abdulla Qodiriy asarlari tilining leksik, morfologik, sintaktik va boshqa jihatlarini xususida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, X.Qahharova, Z.Choriyeva, L.Jalalova, X.Kadirova, A.Qahramonov, S.Ziyotova kabilarning tadqiqot ishlari hamda O'.Lafasov va M.Abdiyevlarning Abdulla Qodiriy asarlari tiliga bag'ishlangan turkum maqolalari ham biz tanlagan mavzu doirasidagi muhim tadqiqotlardan hisoblanadi.

G.Rixsiev, L.Jalolovalarning maqolalarida badiiy asar tilida qo'llanuvchi ma'lum usul va shakllarning lingvopoetik mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Badiiy matnning ko'p qirrali ijod mahsuli ekanligi va har bir ijodkorning til vositalaridan foydalanish mahorati, uslubining o'ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanishi sababli bu tadqiqotlar turli yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning obyekti bo'la oladi.

O'zbek tilshunosligida I.K.Mirzayev, R.Normurodov, G.Rixsiev, M.Yo'ldoshev kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida badiiy asar tili lingvopoetik jihatdan u yoki bu darajada tahlilga tortilgan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida I.Mirzaevning doktorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olim keyingi ishlarida bu sohadagi tadqiqot ishlarida quyidagilarga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi: "...Lingvopoetika bugungi kunda filologiyani yaxlitligini tiklashi mumkin bo'lgan soha deb e'tirof etilayotgan ekan, uning maqsad hamda vazifalarini, tadqiqot obyekti, boshqa tarmoq fanlari bilan munosabatini aniqlab olish va bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish kerak... Bu sohadagi tadqiqotlarni ko'paytirish va kuchaytirish zaruriyati keyingi yillarda filologiya ilmining eng dolzarb vazifalaridan sanalmoqda".

Ayniqsa, M.Yo'ldoshevning badiiy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan monografiyasi bu borada muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqotida asosiy obyekt bo'lgan badiiy matn, uning ta'rifi, o'rganilish darajasi, unda til vositalarining poetik aktuallashuvi, tahlil tamoyillari kabi masalalar tilshunos olim M.Yo'ldoshev tomonidan batafsil o'rganilgan. Olim bu boradagi tadqiqot natijalarini umumlashtirib, "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" asarlarini yaratdi. Olimning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" o'quv qo'llanmasida tadqiqot muammolari, matn turlari, ularning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik

xususiyatlari, ko‘chimlar, tadqiqot metodologiyasi, tahlil tiplari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Uning “Badiiy matn lingvopoetikasi” nomli monografiyasida tilshunoslikda matn muammosi, badiiy matnga lingvopoetik yondashuv zarurligi haqida gapirib, badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari, tilning estetik vazifasi, badiiy matnning mazmuniy turlari va intertekstuallik, badiiy matnda ma’no va mazmun kabi muhim masalalarga oydinlik kiritilgan. Olimning ilmiy-nazariy fikrlariga tayanib, lingvopoetik tahlil olib borish uchun har bir ijodkorning individual uslubi, badiiy matnning g‘oyasi va mohiyati, uning estetik ta’siri to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar qamrovi, xususan, 2000-yillardan keyin jiddiy tarzda kengayib bordi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo‘llashdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatishga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar yaratilayotgani o‘zbek tilshunosligining bu sohada ancha ilgari odimlayotganini ko‘rsatadi.

Lekin bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar qanchalik ko‘p bo‘lmasin tilshunoslikdagi sintaktik birliklarning badiiy xususiyatlarini to‘liq o‘rganish mumkin emas. Chunki bunday tadqiqotlar alohida olingan ijodkorlarning lingvopoetik xususiyatlarini, til boyligidan foydalanish usullarini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, bu tadqiqotlar xususiyliklarni ifodalaydi. O‘zbek tilshunosligidagi sintaktik birliklar badiiyati va lingvopoetikasini to‘liq o‘rganish uchun umumiyliklarga e’tiborni qaratmoq zarur.

Alohida olingan ijodkorlarning asarlarini o‘rganishda fonopoetik, morfopoetik usullariga e’tibor qaratilib, unda unilarni qavatlash, so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish, so‘zni grafik bo‘g‘inlash, nutq jarayonidagi uzilishlar, so‘zni noto‘g‘ri, buzib talaffuz qilishning turli poetik vazifalari kabi masalalar o‘rganilgan. Ular orqali hazil-mutoyiba, hissiy-emotsional holatning yuqori darajadiligini ifodalash, noroziligini ko‘rsatish kabi ma’nolar ifodalanadi. So‘nggi tadqiqotlarda fonetik usul bilan emotsionallikni kuchaytirishning quyidagi turlari mavjud:

1) unilarni kuchli talaffuz qilish (zarb urg‘usi); baland bino, achchiq choy kabi. Bu misolda baland so‘zida zarb urg‘usi ikkinchi a tovushiga tushadi, achchiq so‘zida esa zarb urg‘usi birinchi a tovushiga tushadi;

2) unlini cho‘zish (kvantitativ urg‘u); qato-or imorat, shiriin taassurot. Bu misolda qato-or so‘zida o tovushi, shiriin so‘zida i tovushi kvantitativ urg‘uga ega bo‘ladi;

3) undoshni qavatlash (geminatsiya): muttahaam, uchchiga chiqqan kabi. Bu misollarda muttahaam so‘zida t tovushi, uchchiga so‘zida ch tovushlari qavatlanadi.

Ko‘rsatilgan fonetik hodisalar ma’lum qonun-qoidalarga tayanadi. Ta’kidlash kerakki, fonetik usulda ekspressiv ifodalash faqat kuchaytirish, kuchsizlantirishdan iborat bo‘lib, undan tashqari erkalash kabi ma’noni ham ifodalaydi.

Erkalash ma'nolari tovush o'zgarishi (achalim — asalim), tovush o'zgarishi va unlini cho'zish (serraye-yeb turmoq), kishi nomlarini tovushlarni qisqartirish va boshqa tovushlarni orttirish (Yassi – Yasmina, Barnosh - Barno, Gul - Gulnora) va so'zni bo'g'inlarga ajratib, har bir bo'g'inni kuchli talaffuz qilish (ayt-may-man! Qayt-may-man!) kabi usullar bilan yuzaga keltiriladi.

So'zning atash, emotsional-ekspressiv, aksiologik, onomasiologik kabi vazifalari nutqda reallashadi. Onomasiologiya ismlarni, ularning nomlanish tabiatini, vositalarini, ifodalanishini o'rganuvchi fandır. "Nominatsiya so'zga predmetning aniqlangan belgilarini aks ettiruvchi tushunchani mustahkam bog'lash", boshqacha aytganda, "nominatsiya til belgilari orqali tushuncha – aniqlangan belgilarni aks ettiruvchi signifikatni ifodalashdir". U yoki bu predmetning nomlanishiga asos bo'lgan belgini A.A.Potebnya "ichki shakl" deb nomlaydi.

So'zning ana shunday vazifalari voqelangan matn badiiy matn sanaladi. Badiiy matnning til xususiyatlarini, til birliklarining nutqiy vaziyatdagi turli estetik vazifalarini o'rganish mukammal filologik tahlil uchun muhim vazifadir. "Badiiy matnning til xususiyatlari haqida gapirganda shuni aytish joizki, uni bir vaqtning o'zida uchta turli darajada: semantik, metasemiotik va lingvopoetik jihatdan tahlil qilish lozim".

Ekspressivlik ifodalovchida leksik-frazeologik vositalarning o'z o'ri bor. Bular qatoriga polisemantizm, trop, stilistik chegaralangan leksika, sinonimiya va frazeologiya kabi hodisalar kiradi. Polisemantizmlar birinchi ma'nosi to'g'ri, nominativ ma'noni bildirsa, ikkinchi ma'nosi ko'chma ma'nosida bo'lib, ekspressiv-emotsional fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: qo'li kalta, fe'li keng, istarasi issiq, tili uzun, og'zi katta, qo'li egri.

Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli ta'sir qilishini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ekspressivlik-emotsionallik ifodalashning morfologik usulida so'z shakllarini maxsus qo'llash (ko'chma ma'noda) orqali yuzaga chiqadi. Jumladan, -cha, -choq, -chak, -loq qo'shimchalari maxsus ekspressivlik ifodalovchi vosita bo'lib, suyish, erkalash, yoqtirish, shuningdek, mensimaslik, tahqirlash, kesatish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, menga qara, yigitcha. Obozingni o'chir, yetimcha (so'zlashuv).

-jon, -gina qo'shimchalari subyektiv munosabatni ifodalash bilan birga ekspressivlikni ham ifodalaydi. Masalan, Hoy, bu kim desam senmiding, so'yloqqinam? Voy, aynonim ketay darozginam. (O.Yoqubov)

-lar qo'shimchasi otga qo'shilganda ko'plikni bildirsa, ot bo'lmagan so'zlarga qo'shib ma'noni kuchaytiradi. Masalan, qanchalar og'ir, shunchalar qiynaysanmi (so'zlashuv).

Egalik qo‘shimchalardan I shaxs birlik formasi va shaxs-son, zamon qo‘shimchalari ham ko‘chma ma’noda qo‘llanganda so‘zlovchining voqelikka turli munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, kenjatoyingiz qani? ...yordam bersa bo‘lmaydimi (O. Yoqubov).

Ekspressivlik ifodalashning yana bir usuli so‘zlarning takror shaklidir. Ular quyidagicha shakllanadi va belgining kuchli darajasini bildiradi:

- 1) qaratqich-qaralmish shaklida: go‘zallarning go‘zali, donolarning donosi;
- 2) chiqish kelishigi shaklida: kamdan-kam, kuchaygandan kuchaymoq;
- 3) savol-javob shaklida: somsamisan somsa, yigitmisan-yigit;
- 4) sifatdosh+ egalik: gullaganim gullagan, yashnaganim yashnagan.

Ekspressivlik ifodalashning yuqorida tilga olingan usul va vositalari

A. Abdullayevning maxsus monografiyasida keng yoritilgan .

Fikr ifodasining ta’sir kuchini orttirishda ekspressivlikning xizmati katta. “Nutqni yanada yorqinroq, ta’sirchanroq, taassurotliroq qiladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir. Demak, nutq ekspressivligi - nutqni yorqin, ta’sirchan, tasviriy taassurotli qiluvchi vositalardir”. Yuqorida ekspressivlik ifodalashning fonetik, morfologik va leksik usullari va vositalari xilma-xil ekanligi haqida fikr bildirildi. Ammo ekspressivlik ifodalash nuqtayi nazaridan qaralganda boshqa sohalarga nisbatan sintaksisning imkoniyatlari juda katta. Chunki har handay til birligi sintaktik konstruksiyalarda “jonga kiradi”.”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi / Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017. – № 196 (6860).
2. uza.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ- 4479-son Qarori.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Т.: Фан, 2008. –Б.23.
4. Маҳмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1985. -№6. -Б.48-51; Маҳмудов Н. А. Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, -Т., 1987. -№4. -Б.34-36; Маҳмудов Н. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари –Тошкент, 2009. –Б.12-17.
5. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 141.
6. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 2.
7. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишера Навои: Автореф. дисс....канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 26 с.; Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ...дисс. –

Тошкент, 1969. – 187 б.; Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: Автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1967. – 28б.; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 28 б.

8. Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Г.Гуляма: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1972. – 28 б. Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 28 с.; Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 28 б.;

9. Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 28 б.

10. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.

11. Жалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.

12. Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – 126 б.

13. Қахрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент, 2000. – 136 б.

14. Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Тошкент, 2022. – 154 б.

15. Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006, №3. Б. 56.

16. Абдиев М. Абдулла Қодирий ва ўзбек адабий тили. //Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент – №12. – Б. 29.

17. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис... докт. фил. наук. – Ташкент, 1992; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.; Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – №2. – Б. 84-86; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент: ТАИ. 2000. – Б. 26.

18. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (ЎзМУ илмий мақолалар тўплами). – Т.: Университет, 2002. –Б.22.

19. Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Неъматова Д. Чўлпон публицистикасининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Неъматова Д. Чўлпон публицистикасининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

20. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2020; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2022; Якубова М. Эркин Самандар шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022; Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – В. 23.

21. Языковая номинация. -М., 1977. -С.101

22. Потебня А.А. Языковая номинация. -М., 1977. -С.102

23. Задорнова В.Я. Слово в художественном тексте. Язык, сознание, коммуникация: Сб.статей / Отв.ред. В.В.Красных, А.И.Изотов. – Москва, МАКС Пресс, 2005. – Вып. 29. – С. 115.

24. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши, Тошкент: Фан, 1983. 187-б. www.ziyouz.com kutubxonasi.

25. Галькина-Федорук Е. М., Горшкова К. В., Шанский Н.М. Современный русский язык. Т. I, с. 99. www.ziyouz.com kutubxonasi